

Uyqudan turayotganda zarur bo'lgan odoblar



13:44 / 24.10.2018 4377

Ey, farzand! Tongda o'rnidan turayotgan kishi, avval o'ng yoniga qaraydi va ushbu duoni o'qiydi: «**Bismillahi va billahi va tavakkaltu alallohi. La havla va la quvvata illa billahil aliyyl aziym**». Ko'ylak kiyayotganda «**Bismilloh**» ni aytib, avval o'ng qo'lni, keyin chap qo'lni yengdan o'tkazadi. Boshqa libos va kiyimlar ham xuddi shunday o'ngdan boshlab kiyiladi. Kiyinayotganda har bir a'zoning Allohga ibodatda bo'lishini tilaydi. Har bir a'zo kiyinish asnosida Allohga omonat topshiriladi. Uydan chiqayotganda eshik o'ng qo'l bilan ochilib, o'ng oyoq bilan tashqariga chiqiladi.